O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko’chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2022 - yil 29 - iyun 301-8-108-Q/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Oltinsoy tumanida dam olish kunlari savdo yarmarkalari tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 28-avgustdagi 253-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari”ga muvofiq, tuman hududida dam olish kunlari savdo yarmarkalari tashkil etish bilan bog‘liq faoliyatni tartibga solish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Oltinsoy tuman “Markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozori” MchJning bozor hududida har dam olish kunlari savdo yarmarkalari o‘tkazishga ruxsat berishni so‘rab tuman hokimligiga yozgan xati inobatga olinsin.

2. Oltinsoy tuman “Markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozori” MchJning bozor hududida har dam olish kunlari savdo yarmarkalari o‘tkazishga ruxsat berilsin.

3. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Boymirzayev), tuman ichki ishlar bo‘limi (O.Jiyanov), tuman sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi (A.Jumayev) va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

Oltinsoy tuman “Markaziy dehqon (oziq-ovqat) bozori” MChJ hududida dam olish kunlari savdo yarmarkalarini tayyorlash, o‘tkazish va yopish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqilishini;

dam olish kuni yarmarkalari hududida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo‘lgan nooziq-ovqat iste’mol tovarlarini sotishga ruxsat berilishini;

dam olish kuni yarmarkalari hududida savdo o‘rinlarining bepul berilishini ta’minlasin.

4. Quyidagilar:

tovarga oid hujjatlar;

sotuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda dam olish kuni yarmarkalarida ishtirok etish va mahsulotlarni sotishga ruxsat berilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Babakulov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**